

**O`SPIRINLIK YOSH DAVRIDA TAFAKKUR OPERATSIYALARINING SHAKLLANISHIGA TA`SIR ETUVCHI IJTIMOY PSIXOLOGIK OMILLAR**

*Djolimbetova Miyuagul Madiyarovna  
Ajiniyoz nomidagi NDPI*

**МЫШЛЕНИЕ В ПОДРОСТКОВОМ ПЕРИОДЕ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА ФОРМИРОВАНИЕ ОПЕРАЦИЙ**

*Джольымбетова Миуагуль Мадияровна  
НДПИ имени Ажинияза*

**THINKING IN ADOLESCENCE SOCIO-PSYCHOLOGICAL FACTORY INFLUENCED ON THE FORMATION OF OPERATIONS**

*Jolimbetova Miyuagul Madiyarovna  
The name of the mineral extraction tax is Adzhiniyaza.*

*Tayanch so`zlar: psixologiyada tafakkur muammosi, tafakkurning rivojlanishi, ong shakllanishi, fikr yuritish, qiyoslash, taxlil qilish, xulosa chiqarish*

*Ключевые слова: проблема психологических мышления, развитие мышление, развитие сознательных мышления, обобщение, сравнение, анализ и решение*

*Key words: Problem psychological thinking, development thinking, development conscious thinking, generalization, comparison, analysis and decision*

O`zbekistonning ijtimoiy iqtisodiy rivojlanishining hozirgi bosqichida yangi ijtimoiy munosabatlarga erkin kirisha oladigan umuminsoniy qadriyatlarni e`tirof etadigan ma`naviy qadriyatlarga hurmat bilan qaraydigan ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalash dolzarb muammolaridan sanaladi.

Psixologiyada psixik taraqqiyot inson shaxsining tarkib topishi jarayoni sifatida qaraladi. Psixik taraqqiyot bir-biri bilan o`zaro uzviy bog`liq qator bosqichlarda amalga oshadi. Jumladan, bola aql-zakovatining ko`rsatkichi, sifati, xarakteri uning atrofdagi odamlar bilan o`zaro kundalik munosabatlari va u bajaradigan amaliy faoliyat jarayonida vujudga keladi. Bunday o`zaro ta`sirlar natijasida bolada turli sifatlar tarkib topa boradi. Masalan, savol-javob, baxs-munozara ta`sirida aqlning ijodiy maxsuldorligi, tezligi va teranligi orta boradi.

Shvetsariyalik psixolog J.Piaje intellekt muammosiga o`z shaxsiy nuqtai nazaridan kelib chiqib yondoshgan. J.Piaje intellekt nazariyasini ikkita muhim jihatga, ya`ni intellekt funksiyalari va intellekt davrlariga ajratadi. J.Piaje mulohazasiga ko`ra, intellektning asosiy funksiyalari qatoriga uyushqoqlik ya`ni tartiblilik va adaptatsiya ya`ni moslashish, ko`nikish kiritilgan bo`lib, ular intellektning funksional invariantlari deb yuritiladi. Shuningdek muallif intellektning quyidagi rivojlanish bosqichlarini ajratib ko`rsatadi:

1. Sensomotor intellekt davri (tug`ilgandan 2 yoshgacha);
2. Operatsiyalardan ilgari tafakkur davri (2 yoshdan 7 yoshgacha);
3. Konkret (yaqqol) operatsiyalar (aqliy harakatlar davri 7, 8 yoshdan 11, 12 yoshgacha);
4. Formal (rasmiy) operatsiyalar (aqliy harakatlarni maqsadli amalga oshirish davri).

J.Piajening fikriga ko`ra intellektning o`shishi bolada nutq paydo bo`lishidan ilgari boshlanadi. Intellekt bu aqliy qobiliyatning kurtagi bolaning dastlabki tartibsiz xatti-harakatlarida o`z ifodasini topadi. Keyinchalik maqsadga yo`naltirilgan harakatlar aktini amalga oshirish natijasida intellektning genetik ildizini o`rganish uchun muhim imkoniyatlar yaratiladi. J.Piaje konkret operatsiyalar davri predmetlar bilan aloqalar o`rnatishdan iborat ekanligini ta`kidlab, psixologiya ilmida olg`a siljish yasadi. Formal ya`ni rasmiy operatsiyalar davriga tasnif berilganda esa predmetlar bilan aloqa qilish yo`qolib borishi qayd etiladi. Shuningdek intellektning o`shishi insonning operatsiyalar sistemasi bilan qurollanishidan iborat, hamda intellekt davrining o`zaro o`rin almashinishi tafakkur o`shishini bildiradi, davrning ketma-ketligi esa rivojlanishning ichki qonuniyatlarini ifodalaydi - deb ta`kidlaydi.

Ma`lumki o`spirinlik yosh davrida bolalar umumiy ta`lim maktabining yuqori sinflarida, akademik litsey, kasb-xunar kollejlari hamda oliy o`quv yurtlarida ta`lim faoliyatini davom ettiradilar. Ilk o`spirinlik davrida o`quvchining mustaqil fikr yurita olmasligi uning psixikasidagi jiddiy kamchilik xisoblanadi.

Bu davrda o'quvchi aqlining tanqidiyligi vaziyatga qarab o'zgaruvchan xarakter kasb etadi. Buning asosiy sabablaridan biri – voqelikning mohiyatini ilmiy jihatdan to'g'ri tushunmaslikdir. Shuningdek o'spirinning «o'z pozitsiyasi»da bo'sh kelmasligi, narsa va hodisalarning asl mohiyatini anglab turib, ba'zan ataylab «o'jarlik» qilishi ham bu xolatning bir ko'rinishi xisoblanadi.

E.G'oziev ta'kidlashicha, «ularda moddiy dunyo to'g'risida shaxsiy fikrlar, mulohazalar, ilmiy dunyoqarash tarkib topganidan keyingina tafakkurning tanqidiylik xususiyati rivojlana boshlaydi. Aqlning tanqidiyligini tarbiyalashda o'qituvchi o'quvchining o'ziga xos tipologik xususiyatlariga, aqliy kamolot darajasiga, bilimlari saviyasiga, muloxaza doirasining kengligiga, nutq qobiliyatiga, shaxsiy nuqtai nazariga, o'qishga nisbatan munosabatiga, qiziqishining xususiyat va darajasiga, aqliy faoliyat operatsiyalarini qanchalik bilishiga, mavjud o'qish ko'nikmasi va malakalariga alohida e'tibor berishi lozim»[1,44].

Demak, o'spirin aqliy qobiliyatining asosini tafakkurining quyidagi sifatlari tashkil etadi: mazmundorligi, chuqurligi, kengligi, mustaqilligi, samaradorligi, tezligi. Tafakkur mazmundorligi o'spirin ongida tevarak atrofdagi voqelik bo'yicha muloxazalar, muhokamalar va tushunchalar qanchalik joy olganligiga bog'liq bo'ladi. tafakkur chuqurligi esa moddiy dunyodagi narsa va hodisalarning asosiy qonunlari, xossalari, o'zaro bog'lanishi va munosabatlarining fikrlash jarayonidagi to'liq aks etishi tushuniladi. Tafakkurning tashabbuskorligi o'spirinning o'z oldiga yangi g'oya, muammo va vazifalar qo'yishi, ularni amalga oshirishda samarador vositalarni qo'llashida namoyon bo'ladi. O'spirin tafakkurining tezligi berilgan savolga to'liq javob berish uchun sarflangan vaqt bilan belgilanadi va u fikrlash uchun zarur materiallarning xotirada mustahkam saqlanganligiga, uning tez yodga tushira olishga, muvaqqat bog'lanishning tezligiga, turli xis-tuyg'ularning mavjudligiga, diqqati va qiziqishiga, bilim saviyasiga, qobiliyatiga, egallagan ko'nikma va malakalariga bog'liq bo'ladi.

Haqiqatdan ham, tafakkur ruhiy hayotimizning eng murakkab formalaridan biridir. Tafakkur orqali biz sezgi a'zolarimiz bilan bevosita aks ettirib bo'lmaydigan narsa va hodisalarni ongimizda aks ettiramiz. Har bir yosh davr tafakkur va aqliy qobiliyatning namoyon bo'lishi, shakllanishi va rivojlanishida o'ziga xos ob'ektiv va sub'ektiv shart-sharoitlarni yuzaga keltiradi. Asosan, o'smirlik davrida nazariy tafakkur yuqori ahamiyatga ega bo'la boshlaydi. Chunki bu davrdagi o'quvchilar atrof olamdagi bog'lanishlar mazmunini maksimal darajada bilishga xarakat qiladilar, o'smirning bilishga bo'lgan qiziqishda progress sodir bo'ladi. Ilmiy nazariy bilimlarning egallab olinishi tafakkurning rivojlanishiga olib keladi. Buning hisobiga isbot, dalillar bilan fikrlash qobiliyati rivojlanadi. Unda deduktiv xulosalar chiqarishga qobiliyat paydo bo'ladi. Maktabda o'qitiladigan fanlar o'smir uchun o'z taxminlarini yuzaga keltirish yoki tekshirish uchun sharoit bo'lib xizmat qiladi.

Psixologiyada o'smirlik yoshining xarakteristikasi xaqida so'z yuritilganda asosan gap shaxsning aqliy taraqqiyoti o'tish davri bilan bog'liq xolda yuzaga keladigan muammolar yuzasidan boradi. O'smirlik yoshida bilish jarayonlarining taraqqiyoti hamda aqliy taraqqiyot muammolarini o'rganish ishlariga bag'ishlangan ishlar mavjud, ammo ular barmoq bilan sanarli darajada bo'lib muammoni atroflicha yoritib berish uchun etarli emas.

O'smirlik davrida aqliy imkoniyatlarning o'sishida ularning voqea hodisalarga nisbatan ongli munosabatda bo'lishi hamda o'qishga bo'lgan munosabatlari darajasining kuchayishi ham ta'sir ko'rsatadi. Bu omil ularning o'qish faoliyati motivlarining murakkabligida namoyon bo'ladi, ya'ni o'smirlarning o'qish faoliyati motivlari tarkibiga keng ijtimoiy motivlar ya'ni, bilim olishning ijtimoiy jixatdan muxim ekanligini anglash, mustaqil xayot va mexnatga tayyorlanish uchun o'qishning zarurligi bilan muvaffaqiyatga intilish, izzat nafs bilan bog'liq bo'lgan bilish motivlari hamda shaxsiy motivlar ya'ni, obro' qozonishga intilish, raxbarlik rolini o'ynash va xokozolar birga qo'shib ketgan bo'ladi.

O'smirlik davrida aqliy taraqqiyotda muxim siljishlar yuz beradi. Bu davrda fikrlash faoliyatining asosiy xususiyati abstrakt tafakkur qobiliyatining o'sib borishi bilan bir qatorda voqelikni to'g'ri va aniq, mantiqan aks ettirish uchun tafakkurning konkret obrazli turi ham tafakkurning umumiy strukturasi muxim rol o'ynashda davom etadi. Shuningdek bu davrda aqlning muxim sifatlaridan tafakkurning tanqidiyligi sezilarli darajada taraqqiy etishi xarakterlidir. Shuningdek psixologik adabiyotlarda o'smirlik davri aktiv, mustaqil, ijodiy tafakkurning tarkib topishi uchun senzitiv davr ekanligi ta'kidlanadi.

J.Piajening ta'kidlashicha «Ijtimoiy hayot uch narsaning ta'siri – til, mazmun, qoidalar asosida shakllantiriladi», bu borada o'zlashtirilgan ijtimoiy munosabatlar o'z –o'zidan tafakkurning yangi imkoniyatlarini yaratadi.

11–12 yoshdan boshlab o`smir endi mantiqiy fikrlab xarakat qila boshlaydi. O`smir bu yoshda xuddi kattalar singari keng qamrovli tahlil etishni o`rgana boshlaydi. O`smir tafakkurning nazariy darajaga qanchalik tez ko`tarila olishi o`quv materiallarni shunchalik tez, chuqur egallash va uning intellektini ham rivojlanishini belgilab beradi. O`smirlik davri yuqori darajadagi intellektual faollik bilan farqlanadi. Bu faollik nihoyatda qiziquvchanlik hamda atrofda qilarga o`z layohatlarini namoyish etish, shuningdek ulardan yuqori baho olish extiyojining mavjudligi bilan belgilanadi. O`smirning kattalarga beradigan savollari ko`pgina mazmunli, chuqur o`ylangan va aynan o`sha masala yuzasidan bo`ladi. Bu yoshdagi bolalar turli gepotezalar tuza oladilar, ta`miniy fikr yurita oladilar, tadqiq o`tkaza oladilar hamda ma`lum bir masala bo`yicha al`ternativlarni taqqoslay oladilar. O`smir tafakkuri ko`pincha umumlashtirishga moyil bo`ladi. Bu amaliy tafakkur tizimiga tadbirkorlik, tejamkorlik, hisoblilik, yuzaga kelgan muammolarni tez echa olishlik kabi aqliy sifatlar kiradi. Bunda quyidagi sifatlar bo`lgan taqdirdagina amaliy tafakkurini rivojlangan deb hisoblash mumkin. Bu sifatlarini boshlang`ich sinfdanoq boshlab rivojlantirib borish nihoyatda muhim. O`smirlik davrida ishbilarmonlik sifatini o`quvchilar o`z-o`zini boshqarishni yo`lga qo`yish shuningdek, umumiy foydali tadbirkorlik ishlarida ishtirok ettirish orqali rivojlantirish mumkin[2.62b]. Bu borada o`quvchi ijrochi rovida emas balki boshqaruvchi, mustaqil yo`l tanlovchi va tadbirkorlik munosabatlariga o`zi kirituvchi bo`lgan taqdirdagina rivojlanish amalga oshishi mumkin. Bu yoshda tadbirkorlikni rivojlantirishda ko`proq mustaqillikni berilishi o`smir amaliy tafakkurining rivojiga ijobiy ta`sir ko`rsatadi. O`smir yoshdagi bolalarda tejamkorlikni rivojlantirishning boshqa sifatlariga nisbatan osonroq kechadi, buni ko`proq ularni qiziqtiradigan narsalarga mustaqil ravishda hisob-kitob qilib borishga yo`llash orqali amalga oshirish mumkin. O`smirlarda yuzaga kelgan muammolarni tez va operativ holda echish malakasini shakllantirish birmuncha qiyinroq kechadi. Albatta bu bolaning temperamentiga ham bog`liq. Barcha o`smirlarni ham tezlashib, tez xarakat qilishga o`rgatish mushkul, lekin ularni muammo yuzaga kelishi bilan orqaga tashamay tez echishning umumiy qoidalarga o`rgatib borish mumkin.

O`smirlik davrida intellektning yuqori darajada rivojlangan bo`lishi qimmatli va obro`li hisoblanadi. O`smir shaxsida va uning bilishga qiziqishidagi o`zgarishlar o`zaro bog`liq bo`ladi. Ixtiyoriy psixik jarayonlarning rivojlanishi o`smirdagi shakllanib kelayotgan shaxs mustaqilligiga tayanadi, o`zining shaxsiy xususiyatlarini anglash va shakllantirish imkoniyatlari esa undagi tafakkurning rivojlanishi bilan belgilanadi.

Xulosa qilib aytish joizki, o`smirlik davrida tafakkur jarayonlariga ta`sir etuvchi omillarni aniqlab, ularning aqliy qoboliatlarni xar tomonlama rivojlanishi uchun yaratilgan qulay shart-sharoitlardan to`g`ri foydalanish bizning nazarimizda bu davrda sodir bo`ladigan ayrim salbiy xolatlarining oldini olishga xizmat qilishi tabiiydir.

O`smirlik yoshida fikrlash faoliyatida muhim siljishlar yuz bergani bois, kichik maktab yoshida erishilgan tafakkur taraqqiyotining darajasi o`smirga fan asoslarini muvaffaqiyatli va sistemali o`rganish imkonini beradi. O`rganiladigan fanlarning mazmuni va o`quv kurslari tuzilishining mantiqiy bilimlarni o`zlashtirishning yangi xarakterini, mustakil tafakkurga tayanishni talab etadi, abstraktsiyalash va umumlashtirish, taqqoslash, mulohaza yuritish, xulosalar chiqarish, isbotlash qobiliyati zarur bo`ladi.

#### Adabiyotlar:

1. G`oziev. E.G`. «Tafakkur psixologiyasi» Toshkent- 1990, 44b
2. G`oziev E.G`. Psixologiya (Yosh davrlar psixologiyasi). Toshkent, 2002.62b
3. Xaydarov F.I., Xalilova N.I. Umumiy psixologiya. Toshkent-2023